

«TASDIQLAYMAN»  
Farg'ona viloyati hokimligi  
“Kapital qurilish soxasida  
buyurtmachi xizmati”

direktori



X.Dolimov

2022 yil

«\_\_\_»

# Bajaruvchi tashkilotni tanlab olish uchun

## TANLOV HUJJATI

Farg'ona 2022 y.

# **Tanlov xujjatlarining mazmuni:**

## **I. Tanlov ishtirokchilari uchun yo'riqnomma**

## **II. Texnik qism**

## **III. Narxlar qismi**

### **TANLOV ISHTIROKCHISI UCHUN YO'RIQNOMA**

#### **1. TANLOV PREDMETI VA TAXMINIY QIYMATI**

Tanlov predmeti: Farg'ona viloyati Yozyovon tumani Baxor MFY hududidagi Ko'p qavatlari uylarning bolalar maydonchasini joriy ta'mirlash bo'yicha smeta hujjatlari tayyorlash (*qiymati QQS bilan*).

1.2. Tanloving yuqori qiymati QQS bilan 3 900 000 so'm. Ushbu qiymatdan ortiq qiymatdagidan takliflar qabul qilinmaydi va ko'rib chiqilmaydi.

1.3. Mahsulot bo'yicha Texnik topshiriq tanlov hujjatlarining texnik qismida ilova qilingan.

Ushbu tanlov yakunlari bo'yicha g'olib chiqqan bajaruvchi tashkilot bilan shartnoma tuziladi.

1.4. Ishlarni bajarish muddati: Buyurtmachi va g'olib bo'lган qatnashchi bilan shartnoma imzolangan kundan boshlanadi.

1.5. Buyurtmachi Pudratchiga tegishli manzilli dasturga asosan mablag' ajratilganidan so'ng shartnoma bo'yicha ishlar umumiy joriy qiymatining 30% miqdorida avans to'lovini o'tkazib beradi.

1.6. Joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlar sifati tekshirilib, qabul qilingandan so'ng berilgan avansni proporsional ravishda ushlab qolgan holda, bajarilgan ishlar uchun viloyat Moliya boshqarmasi tomonidan ob'ektning viloyat G'aznachilik boshqarmasidagi maxsus hisob raqamiga mablag' ajratilganidan so'ng ob'ekt umumiyligi shartnomaviy qiymatining 70 foizi doirasida amalga oshiriladi.

#### **2. TANLOV TASHKILOTCHILARI**

2.1. **Farg'ona viloyati hokimligi "Kapital qurilish soxasida buyurtmachi xizmati"** (bundan keyin - "Buyurtmachi" deb ataladi) - tanlov tashkilotchisi hisoblanadi.

"Buyurtmachi" manzili: O'zbekiston Respublikasi, Farg'ona viloyat Farg'ona shaxar Temiryo'l-37 uy.

El.adres: [hadi.tv.85@mail.ru](mailto:hadi.tv.85@mail.ru)

2.2. Tanlov "Buyurtmachi" tomonidan tanlovlardan o'tkazish bo'yicha tuzilgan Xarid komissiyasi tomonidan o'tkaziladi.

2.3. Tanlov "Buyurtmachi" tomonidan tuzilgan xarid komissiyasi tomonidan qonunda belgilangan tartibda, belgilangan muddatlarda o'tkaziladi.

#### **3. TANLOV ISHTIROKCHILARI**

3.1. Tanlovda mulkchilik shaklidan qat'iy nazar shu mazmunda ish va xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan, tajribaga ega bo'lgan barcha yuridik maqomga ega bo'lgan tashkilotlar ishtirok etishi mumkin.

3.2. Tanlovda ishtirok etishi uchun talabgorlarga quyidagi malakaviy talablar quyiladi:

- shartnomalar tuzish yuzasidan fuqarolik-muomala huquqiy layoqat va vakolatlar;
- o'z kuchlari bilan ilgari bajarilgan ish hajmlari to'g'risidagi ma'lumotlar;
- Litsenziya, guvoxnama;

- Tanlov ishtirokchisi haqida umumiylumotlar (tashkilot ishchi-xodimlari);
- Tanlov ishtirokchisining moliyaviy ko'rsatgichlari, buxgalteriya balans xujjatlari; saloxiyati (jumladan, to'lovga qodirligi va aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganligi) to'g'risida ma'lumot;
- Tanlov ishtirokchisining soliq to'lovlardan bo'lgan qarzdorlik ma'lumoti;
- Tanlovdag'i ob'ektga o'xshash ob'ektlarda oxirgi 2 yillik ish tajribasi;
- Orgtexnika jihozlari va dasturlar ro'yxati;
- Kafolat xati (buyurtmachiga ishlarni sifati va topshirish muddatini ko'rsatib tasdiqlagan holda, bundan tashqari korruptsiya ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ariza).

Nizom mablag'i miqdori.

3.3. Agar tanlov predmeti bo'lgan ishlar (xizmatlar)ni bajarish bilan bog'lik faoliyat qonunchilikka binoan litsenziyalashtirishi zarur bo'lsa, tanlovda ishtirok etish uchun belgilangan tartibga muvofiq tegishli litsenziyaga ega bo'lgan talabgorlarga ruxsat etiladi.

3.4. Qo'yidagi talabgorlarga tanlov jarayonlarida ishtirok etishga ruxsat berilmaydi:

qayta tashkil etilish (ajratilishi, qo'shilish), tugatish yoki bankrotlik arafasida turganlar; mol-mulki musodara qilinganlar, hamda muassislik kelishuv, moliyaviy ishtirok, xolding va boshqa shaklda ifodalangan bevosita tashkiliy-xuquqiy yoki bir biriga moliyaviy qaramligi mavjudlar.

#### **4. TANLOVDA ISHTIROK ETISH UCHUN TAKLIFLARNI TAQDIM ETISH**

4.1. Tanlov uchun takliflar va unga tegishli ilovalar va xujjatlari, ma'lumotlar "Buyurtmachi" va "Ishtirokchi" ixtiyoriga ko'ra o'zbek yoki rus tilida taqdim etilishi mumkin.

4.2. Tanlov xujjatlarda quyidagilar taqdim etilishi lozim:

- Texnik qismida, "Buyurtmachi" tomonidan qo'yilgan texnik talablar asosida, bajariladigan ish va xizmatlar ko'rsatilishi kerak;
- Narxlar qismi, Tanlov shartlarida belgilangan narxlar doirasida, xizmatlarni bajarish muddatlari, to'lovlar tartibi, yakuniy to'lovlar va boshqa bog'liq ko'rsatkichlar ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Tanlov ishtirokchilari xar bir talablar bo'yicha o'z takliflarini yaxlit xolda PDF formatda, vakolatli shaxs imzosi va muxr bilan tasdiqlangan holda yoki xar bir varag'ini muxrlab tasdiqlangan holda elektron ravishda platformaga joylashtirishi lozim.

4.3. Tanlov ishtirokchisi:

- faqat bitta taklif berishi mumkin;
- taqdim etilayotgan xujjatlarning haqiqiyligi va ma'lumotlarning haqqoniyligiga to'liq javobgar bo'ladi;
- takliflar berish muddati tugagunga qadar o'z takliflarini qaytarib olish yoki o'zgartirish kiritish huquqiga ega.

#### **5. TAKLIFLARNI TAQDIM ETISH MUDDATINI UZAYTIRISH**

5.1. Takliflar muddatini uzaytirilishi faqat xarid komissiyasi yig'ilishi qarori asosida amalga oshiriladi.

5.2. Tanlov muddatini uzaytirish to'g'risidagi qaror maxsus axborot portalida joylashtirilishi lozim.

#### **6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI**

6.1. Davlat xaridlari to'g'risidagi Qonun talablarini buzgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar

6.2. Xarid komissiyasi davlat xaridlari bo'yicha qonunchilikda belgilangan tartibda g'olib ishtirokchilarni aniqlash va asoslangan qaror qabul qilish bo'yicha majburdir.

6.3. Tanlov ishtirokchisi taqdim etilgan barcha xujjatlarni xaqiqiyligi va to'g'riliga javobgardir. G'olib ishtirokchi deb topilgandan so'ng qonunchilikda belgilangan tartibda davlat buyurtmachisi bilan o'rnatilgan tartibda va muddatlarda shartnomaga majburdir.

## **7. BOSHQA SHARTLAR**

7.1. Davlat buyurtmachisi tanlov hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida tanlovda ishtirok etish uchun takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida uch kun oldin qaror qabul qilishga haqli. Tovarni (ishni, xizmatni) o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi. Bunda ushbu tanlovda takliflar berish tugaydigan muddat tanlov hujjatlariga o'zgartishlar kiritilgan sanadan e'tiboran kamida o'n kunga uzaytirilishi kerak. Shu bilan bir vaqtida, agar e'londa ko'rsatilgan axborot o'zgartirilgan bo'lsa, tanlov o'tkazish to'g'risidagi e'longa o'zgartishlar kiritiladi.

7.2. Tanlov ishtirokchisi tanlov hujjatlari qoidalarini tanlov o'tkazish uchun e'londa belgilangan shaklda tushuntirish talabi bilan davlat buyurtmachisiga so'rov yuborishga haqli. So'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran ikki ish kuni ichida davlat buyurtmachisi, agar mazkur so'rov davlat buyurtmachisiga takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida ikki kun oldin kelib tushgan bo'lsa, ushbu so'rovga belgilangan shaklda javob yuborishi shart. Tanlov hujjatlarining qoidalariga doir tushuntirishlar ularning mazmun-mohiyatini o'zgartirmasligi kerak.

7.3. Takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasi xarid komissiyasining barcha a'zolari tomonidan imzolanadi hamda undan olingan ko'chirma u imzolangan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida maxsus axborot portalida e'lon qilinadi.

7.4. Tanlovning istalgan ishtirokchisi takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasi e'lon qilinganidan so'ng davlat buyurtmachisiga tanlov natijalariga doir tushuntirishlarni taqdim etish to'g'risida so'rov yuborishga haqli. Davlat buyurtmachisi bunday so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran uch ish kuni ichida tanlov ishtirokchisiga tegishli tushuntirishlarni taqdim etishi shart.

7.5 Tanlov natijalari bo'yicha shartnoma tanlov hujjatlarida va o'zi bilan shartnoma tuzilayotgan tanlov ishtirokchisi tomonidan berilgan taklifda ko'rsatilgan shartlar asosida tuziladi